



ILMIY ELEKTRON JURNAL

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA POCHTA ALOQASI KORXONASINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH VA QO'LLAB-QUVVATLANISHI

Ravzatov Jonibek Baxromovich

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tayanch doktoranti

jonibek_tatu@mail.ru

Annotation

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida pochta aloqasi korxonasini davlat tomonidan tartibga solishdagi islohotlar va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi haqida so'z yuritiladi. Tahlil natijalarida O'zbekistonda pochta faoliyatida raqamli iqtisodiyotning pochta iqtisodiy o'sishiga ta'sirini aniqlangan, uning asosiy va istiqbolli yo'naliishlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotning ob'ekti bo'lib "O'zbekiston pochtasi" AJ hamda Respublikamizda pochta sohasida faoliyat olib borayotgan nodavlat tashkilotlari iqtisodiyotining tarmoq va sohalarida joriy etilayotgan axborot texnologiyalari, raqamlashtirish jarayonlari tanlangan. Tadqiqotning predmetini mamlakatda pochta faoliyatida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy munosabatlar tashkil etadi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются реформы государственного регулирования предприятия почтовой связи в условиях цифровой экономики и его государственной поддержки. По результатам анализа выявлено влияние цифровой экономики на экономический рост почты в Узбекистане, разработаны научно обоснованные предложения и рекомендации по совершенствованию ее основных и перспективных направлений. Объектом исследования были выбраны информационные технологии, процессы оцифровки, внедряемые в отраслях и сферах экономики АО "Узбекистон почтаси" и негосударственных организаций, осуществляющих деятельность в почтовой сфере в нашей республике. Предметом исследования являются социально-экономические, организационно-правовые отношения в развитии цифровой экономики в сфере почтовой деятельности в стране.

Abstract

This article will talk about reforms in the state regulation of the postal enterprise in the conditions of the digital economy and its state support. In the results of the analysis, the impact of the digital economy on postal economic growth in Uzbekistan in postal activities was determined, scientifically based proposals and recommendations were developed to improve its main and promising areas. The object of the study was the selection of information technologies and digitization processes being introduced in the sectors and sectors of the economy of Uzbekistan post JSC and non-governmental organizations operating in the postal sector of our Republic. The subject of the study is socio-economic, organizational and legal relations in the development of the digital economy in postal activities in the country.

Kalit so‘zlar

pochta aloqasi, pochta, pochta aloqasi korxonalari, hududiy filiallar, pochta aloqa bog‘lamalari, aloqa bo‘limlar, xizmat, avtomatlashtirish, tizim, raqamlash tirish, raqamli iqtisodiyot, kommunikatsiya, raqamli texnologiyalar.

Ключевые слова

почта, Почта, пре

дприятия почтовой связи, территориальные отделения, почтовые отделения, отделы связи, сервис, автоматизация, система, оцифровка, Цифровая экономика, коммуникации, цифровые технологии.

Keywords

post Office, post office, post office enterprises, regional branches, post communication links, communication departments, service, automation, system, digitization, digital economy, communication, digital technology.

Kirish

Hozirgi davrda O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq. Raqamli iqtisodiyot bo‘yicha olib borilgan keng ko‘lamli tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, iqtisodiyot tarmoqlari, davlat boshqaruvi va jamiyatning turli sohalariga AKT har tomonlama kirib borayotganligi uning o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mutaxassislar muayyan mamlakatda Raqamli iqtisodiyotning muvaffaqiyatli rivojlanishida davlatning roli muhimligini ta’kidlab, u ilg‘or texnologiyalarni joriy etishda muvofiqlashtiruvchi vazifasini bajaradi, degan xulosaga keldilar.

AKTni faol joriy etish axborot rolining o‘zgarishi (transformatsiya)ga, alohida tarmoqlar faoliyatining boshqa tarmoqlarga o‘zaro bog‘liqligi ortishiga, mehnat bozoridagi tarkibiy nomutanosibliklarga, iqtisodiyotda ilm-fanning roli va xizmat ko‘rsatish sohasining YaMMda ulushi oshishiga olib keladi. Shuningdek, bu rivojlanish davri uchun bir tomonidan, kelajak davrning maksimal noaniqlik holati, ikkinchi tomonidan esa rivojlanishning yuqori dinamikasi xarakterlidir [7].

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi pochta aloqasi xizmatlariga ham o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Pochta aloqasi tashkilotlari tomonidan taqdim etiladigan asosiy raqamli

mahsulotlar iste'molchiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida taqdim etiladigan an'anaviy pochta xizmatlari va faqat belgilangan texnologiyalar yordamida ishlab chiqarish mumkin bo'lgan mahsulotlardir. Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, bir tomondan, iste'molchilarning pochta xizmatlarining keng doirasiga kirishini osonlashtiradi, boshqa tomondan, ushbu xizmatlarni taqdim etuvchi tashkilotlarga o'z faoliyatni samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi [8].

Shunday qilib, "O'zbekiston pochtasi" AJ faoliyatida faol foydalaniladigan katta ma'lumotlar va sun'iy intellekt texnologiyalari iste'molchilarning raqamli portretlari va ularning iqtisodiy xatti-harakatlarini o'rganish asosida qo'shimcha qiymat yaratishga imkon beradi. Mijozlar to'g'risidagi ma'lumotlar xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning asosiy aktiviga aylanadi. Shu bilan birga, uchinchi shaxslarga kompaniyada mavjud bo'lgan mijozlar ma'lumotlarini tahlil qilish yoki ulardan foydalanish, turli xil dasturlar va xizmatlarni birlashtirish va shu bilan mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkoniyatini beradigan ochiq ma'lumotlar platformalarini rivojlantirish dolzarb tendentsiyadir [9].

Adabiyotlar tahlili

Iqtisodiyotimiz va ijtimoiy hayotda "raqamlashtirish" jarayoni (ingliz tilida – digitization ya'ni, raqamlashtirish, ba'zan esa "digitalization" ya'ni raqamlashtirilishi ma'nosini bildiradi) haqida gapirganda, birinchi navbatda, terminologiyaga aniqlik kiritish kerak. Eng keng ma'noda "raqamlashtirish" jarayoni odatda raqamli texnologiyalarni keng qo'llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishni anglatadi. axborotni yaratish, qayta ishslash, almashish va uzatish texnologiyalaridir [10].

Raqamli iqtisodiyot, uning shakllari va ta'sir etuvchi omillarining ilmiy metodologik jihatlari ko'plab xorijlik olimlar, jumladan: N.Lane, T.Mesenbourg, M.Kastells, B.Panshin, N.Negroponte, A.Sokolov, A.Kunsman, R.Buxt, R.Xiks, M.Polojixina, I.Strelkova, M.Kalujskiy, S.Plugotarenko, M.Kastells, R.Solou va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan [11].

O'zbekiston iqtisodiyotida axborot texnologiyalaridan foydalanish, raqamli iqtisodiyotni joriy etishning dolzarb masalalari va ijtimoiy-iqtisodiyotga ta'sirini o'lhash bilan bog'liq tadqiqotlar S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva, K.X.Abdurahmonov, O.Umarov va mamlakatimizning boshqa ko'plab yetakchi iqtisodchi olimlari tomonidan olib borilgan . Ularning ilmiy tadqiqot ishlarida iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning ehtiyojlarini ta'minlaydigan, shuningdek, ular o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri o'zaro aloqa qilish imkoniyatini beradigan funksiyalar to'plamiga ega bo'lgan raqamli muhit bo'yicha izlanishlar o'rinni olgan .

Keyingi yillarda pochta xizmatlari bozorining o'zgarishiga va pochta rivojlanishining cheklanishiga ta'sir ko'rsatgan bir necha omillar mavjud. Ko'pgina ekspertlarning fikricha, an'anaviy pochta aloqasi xizmatlariga bo'lgan talabning pasayishiga ta'sir ko'rsatgan asosiy omillar bu texnologik omillar, ya'ni Internet, elektron pochtaning rivojlanishi, elektron tijoratning rivojlanishi, global telekommunikatsiyalar bozorining rivojlanishi, yangi raqamli texnologiya vositalarining paydo bo'lishi hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida raqamli iqtisodiyot sharoitida pochta aloqasi korxonasini davlat tomonidan tartibga solishdagi islohotlar va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Maqolani shakllantirish jarayonida kuzatish va tanlab olish, ilmiy-nazariy, empirik kuzatuv usullardan foydalanilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadqiqotda qo'llanilgan "O'zbekiston pochtasi" AJning va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik rasmiy manbalardan foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar

Pochta aloqa sohasi xalq xo'jaligi sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning asosiy vazifasi aholi va xalq xo'jaligining pochta aloqa xizmatlari va vositalariga bo'lgan talabini qondirishdan iboratdir. Xalq xo'jaligidagi pochta aloqa bu - shaxs va jamiyatning turli ko'rinishdagi axborotlarni almashishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan.

Respublikada pochta aloqasini rivojlantirishdagi asosiy yo'nalishi zamonaviy talablarga javob beruvchi, mijozlarni o'sib borayotgan talablarini qondiruvchi va Umumjahon pochta ittifoqi standartlari bo'yicha pochta jo'natmalarini qayta ishlash sifatini ta'minlovchi ishlab chiqarishni tashkil qilish darajasidagi xizmatlarni ko'rsatishdan iborat [12].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4921-son qarorida soha faoliyatida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qator vazifalar belgilab berildi. Hususan:

pochta va kuryerlik xizmatlarini taqdim etish faoliyati bilan shug'ullanib kelayotgan mahalliy va xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda "yakuniy manzil" xizmatini joriy etish;

pochta aloqasining an'anaviy xizmatlarini takomillashtirish, ularni raqamlashtirish, jo'natmalarini qabul qilish, kuzatib borish va yetkazish jarayonlariga axborot texnologiyalari va tizimlarini joriy etish orqali aholi, biznes va davlat idoralariga zamonaviy xizmatlarni taqdim etish;

"Gibridd pochta" jo'natmalarini qabul qilish va yetkazib berish xizmatlari sonini 2 barobarga oshirish;

pochta aloqasi obyektlari orqali to'lovlarni onlayn rejimda qabul qilish avtomillashtirilgan tizimini modernizatsiyalash va uning mobil ilovasini ishlab chiqish [6].

"O'zbekiston pochtasi" AJning korporativ kompyuter tarmog'i 2002-2003-yillarda tashkil etilgan bo'lib, xozirgi kunda ushbu korporativ kompyuter tarmog'i (KKT)ga Jamiyatning 165 ta tuman pochta aloqasi tarmoqlari va 1675 ta pochta aloqasi bo'limlari jami 1840 ta pochta aloqasi obyektlari bog'langan.

I-jadval

“O‘zbekiston pochta” AJ hududiy filiallarda jamiyatning korporativ kompyuter tarmog‘iga ulangan kompyuterlar soni (yillar kesimida)¹

№	Filiallar nomi	2015 yil	2017 yil	2019 yil	2022 yil 23-fevral holatiga
1	Qoraqalpoq filiali	124	60	180	256
2	Andijon filiali	138	58	130	185
3	Buxoro filiali	186	210	150	213
4	Jizzax filiali	110	100	120	170
5	Qashqadaryo filiali	175	198	198	281
6	Navoi filiali	132	130	125	176
7	Namangan filiali	194	139	195	277
8	Samarqand filiali	261	325	312	443
9	Surxondaryo filiali	232	84	222	315
10	Sirdaryo filiali	118	85	88	125
11	Toshkent filiali	349	61	250	355
12	Farg‘ona filiali	254	283	333	473
13	Xorazm filiali	146	110	115	163
14	Toshkent pochtasi	298	410	268	381
Jami filiallar bo‘yicha		2717	2253	2686	3813

Mijozlar nomiga kelgan pochta jo‘natmalarini olishi uchun mo‘ljallangan o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatuvchi avtomatlashtirilgan komplekslar (pochtamatlar) tarmoqlarini boshqarish tizimini joriy etishning loyiha-texnik hujjatlar ishlab chiqilib, tanlov o‘tkazildi.

2021 yilda Jamiyat tomonidan markazlashtirilgan holda 71 ta pochtamatlar xarid qilindi va ulardan 15 tasi Toshkent shahriga, Farg‘ona va Toshkent viloyatiga 6 tadan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlariga 4 tadan taqsimlandi va ushbu viloyatlarning aholi gavjum joylariga o‘rnatildi.

O‘zbekiston Respublikasi halqaro pochta almashinuv punkti sifatida Butun Jahon Pochta Ittifoqiga a’zo 192 ta davlatdan 80 dan oshig‘i bilan doimiy ravishda pochta almashinuvlarini amalga oshirib kelmoqda. Shu jumladan 24 davlatlar bilan xalqaro pochta almashinuvi “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi bilan to‘g‘ridanto‘g‘ri olib borilmoqda. Jumladan, 18 ta uzoq xorijiy davlatlar bilan Gretsiya, Tailand, Hindiston, Malayziya, Angliya, AQSh, Latviya, Yaponiya, Fransiya, Xitoy, Italiya, Janubiy Koreya, Turkiya, Isroil, Eron, Germaniya, Vyetnam, Rossiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Ukraina, Ozorbayjon davlatlari bilan pochta almashinadi².

¹ “O‘zbekiston pochtasi” AJ ning yillar bo‘yicha ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzib chiqildi

² “O‘zbekiston pochtasi” AJ ning yillar bo‘yicha ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzib chiqildi

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanganlik darajasi 100 % bo'lgandagina yangi zamonaviy xizmat turlarini joriy etish, virtual xizmatlardan foydalanish mumkin bo'ladi. Shu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, MDH davlatlari orasida Rossiya, Belorus, Ukraina kabi davlatlarda kiber-pochta jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Ushbu davlatlarda an'anaviy xizmat turlari bilan bir qatorda yangi zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan virtual muhitda ishlaydigan xizmatlar rivojlanib bormoqda. Yangi axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan xizmat turlaridan biri bu billing tizimi hisoblanadi.

"O'zbekiston pochtasi"³ AJ tizimida mamlakatimizning barcha hududini qamrab olgan 2 mingdan ziyod bo'linma mavjud. Prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni yana-da chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri – bu sohalarni raqamlashtirish hisoblanadi. Bu o'z navbatida, pochta sohasiga ham zamonaviy raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni taqozo etadi³.

"Elektron pul o'tkazmalari tizimi" orqali O'zbekiston xududining barcha yo'nalishlari bo'yicha pul o'tkazmalarini amalga oshirish mumkin. Mazkur tizim 2005 yilda joriy etilgan bo'lib, bugungi kunda unga 1840ta pochta aloqasi obyektlari bog'langan.

Shuningdek, Xalqaro elektron pul o'tkazmalari moliyaviy tizimi IFS orqali Ukraina, Rossiya, Qozog'iston, Belorussiya, Ozarbayjon, Armeniya, Gruziya Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari bilan hamkorlikda ijtimoiy turdag'i pul o'tkazmalari almashuvi yo'lga qo'yilgan.

³ "O'zbekiston pochtasi" AJ ning yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzib chiqildi

2-jadval

“O‘zbekiston pochta” AJ hududiy filiallari tarkibidagi aloqa korxonalarida elektron pul o‘tkazmalari avtomatlashtirilgan axborot tizimi ishchi o‘rinlari soni⁴

Nº	Filiallar nomi	2015 yil	2017 yil	2019 yil	2022 yil 23-fevral holatiga
1	Qoraqalpoq filiali	84	109	106	111
2	Andijon filiali	85	102	113	115
3	Buxoro filiali	124	136	136	121
4	Jizzax filiali	58	70	82	82
5	Qashqadaryo filiali	87	92	104	111
6	Navoi filiali	80	78	66	70
7	Namangan filiali	134	96	118	118
8	Samarqand filiali	183	201	201	207
9	Surxondaryo filiali	87	86	62	81
10	Sirdaryo filiali	55	60	36	40
11	Toshkent filiali	167	188	164	171
12	Farg‘ona filiali	171	190	198	200
13	Xorazm filiali	67	109	95	101
14	Toshkent pochtasi	154	173	141	142
Jami filiallar bo‘yicha		1536	1690	1622	1670

To‘lovlarni qabul qilish avtomatlashtirilgan tizimi» (TQQAT) va “O‘zbekenergo” DAKning billing tizimi o‘rtasida ma’lumotlarning elektron ko‘rinishda operativ almashinushi yo‘lga qo‘yilgan. Tizim 2013- yilda joriy etilgan. Tizim dasturi ma’nani eskirganligi va ko‘pgina zamonaviy talablarga javob bermayotganligi sababli 2021 yilning may oyida yangi ishlab chiqilgan “AVVAL” AT dasturiga almashtirildi. Jamiyatning kompyuterlashtirilmagan va ma’lumot uzatish kanallari bilan ta’minalash imkoniyati bo‘lmagan aloqa bo‘limlarida qabul qilingan to‘lovlardan haqidagi ma’lumotlarni billing tizimiga bog‘langan obyektlar (bog‘lamalar) orqali ma’lumotlar bazasiga kiritib borilishi yo‘lga qo‘yilgan.

Bugungi kunda pochta aloqasi bozorida kuchli raqobatli muhit vujudga kelgan. Pochta va kuryerlik xizmatlari 575 ta mahalliy xususiy kompaniya va xalqaro darajadagi yirik kompaniyalar tomonidan ko‘rsatib kelinmoqda. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mazkur korxonalar tomonidan 2019-yilda 260,0 milliard so‘mlik pochta va kuryerlik xizmatlari taqdim etilgan. “O‘zbekiston pochtasi” AJ tizimida mamlakatimizning barcha hududini qamrab olgan 2 mingdan ziyod bo‘linma bo‘lib, ularda 7 ming nafar xodim faoliyat yuritishi lekin yillar davomida sohaga e’tibor berilmagani sababli pochta xizmatining o‘rnini pasayib ketgan. Jumladan, so‘nggi o‘n sakkiz yilda 1 ming 300 ta pochta bo‘linmasi yopilgan. O‘tgan yili

⁴ “O‘zbekiston pochtasi” AJ ning yillar bo‘yicha ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzib chiqildi

xorijdan kelgan 6 ming tonna jo‘natmalarining atigi 10 foizi, kuryerlik xizmatlarining 30 foizi milliy pochta hissasiga to‘g‘ri kelgan xolos⁵.

Xulosa

Pochta aloqasi tizimi bugungi kunda mamlakat hududlarida xat va pochta jo‘natmalari bilan bir qatorda tovarlarni yetkazib berish, bank, moliya va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha o‘z infratuzilmasiga ega bo‘lgan muhim soha hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida pochta aloqasi korxonasini davlat tomonidan tartibga solinib, davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanmoqda. Barchamizga ma’lumki, 2020 yil 14 dekabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaror qabul qilingan edi.

Pochta aloqasi tizimi bugungi kunda mamlakat hududlarida xat va pochta jo‘natmalari bilan bir qatorda tovarlarni yetkazib berish, bank, moliya va davlat xizmatlarini ko‘rsatish bo‘yicha o‘z infratuzilmasiga ega bo‘lgan muhim soha hisoblanadi. Shuni aytib o‘tishimiz kerakki, bugungi kunda Milliy operator tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha yetarlicha choralar ko‘rilmaganligi natijasida,bir qator kamchiliklar va yechilishi kutilayotgan muammolar yig‘ilib qolgan edi. Umumjahon pochta ittifoqining Pochta rivojlanishi indeksi global reytingida past o‘rinlarni egallagandi. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etib, pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish, sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, pochta aloqasi xizmatlarini taqdim etish faoliyatini to‘liq avtomatlashtirish orqali pochta rivojlanishi indeksi global reytingida mamlakatimizni birinchi 50 talikka kiritish maqsadida Prezidentimizning ushbu qarori qabul qilingan edi.

Pochta aloqasi korxonalarini raqamlashtirish korxona faoliyatida quyidagi ijobiy natijalarga erishish kuzatiladi:

- axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan xizmat turlari sonining ko‘payishi;
- mijozlarning aloqa korxonalariga bo‘lgan murojatlar oqimining ortishi;
- ana’naviy xizmat turlari (yozma xat-xabarlar va posilka jo‘natmalari) samaradorligining ortishi;
- hududiy aloqa korxonalari bilan jo‘natmalar almashish davriyiligining ortishi hamda yetkazib berishga sarflangan vaqtning qisqarishi;
- pochta aloqasi korxonlari daromadlarining o‘sishi va korxonani texnik va texnologik qurollantirishga erishish;
- pochta aloqasi korxonlari xodimlari sonining ortishi va molivayi rag‘batlantirish imkoniyatlarining kengayishi;
- pochta aloqa korxonalariga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanishi.

⁵ Shirinov, U. Pochta xizmatlarining hisob va audit ob’ekti sifatidagi tasnifiy asoslari. Ekonomika. ЭКОНОМИКА, 804-809

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020-yil 6 oktyabrdagi PF-6079 sonli Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 3-iyuldagи “O‘zbekiston respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3832-sonli Qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Prizdentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Pochta aloqasi xizmatlarini ko‘rsatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4921-son Qarori
6. “O‘zbekiston pochtasi” AJ ning ““O‘zbekiston pochtasi” AJ tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish” 199-son buyrug‘i 2017 yil 28-iyun
7. O‘lmasov, A Vahobov “Iqtisodiyot nazariyasi” Toshkent-2019. 87-b
8. Gulyamov S.S., Ayupov R.X. Raqamli iqtisodiyot va uning asosiy rivojlanish yo‘nalishlari. UzR Statistika Kumitasi elektron jurnali, 2019 yil noyabr, 2-son. 10 bet.
9. Jo‘rayev L.N., Mamatqulov G‘.R., Xudoyberdiyev R.F. “Zamonaviy pochta aloqasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent, Aloqachi-2017.
10. Алексеев И.В. Информационное обеспечение системы управления франчайзинговыми предприятиями / И.В. Алексеев, Е.В. Рибокене // Экономические и гуманитарные науки. – 2019. – №1 (276). – С. 105–110
11. Lapidus L.V. Digital economy. - M.: Infra-M, 2019 yil.
12. Отакузиева З.М., Бобоходжаев Ш.И. Перспективы и роль цифровой экономики в развитии почтовой связи Узбекистана // “Научный альманах”. 2018. №7 – 1 (45). Science almanac. – P.18-22.
13. Shirinov, U. Pochta xizmatlarining hisob va audit ob’ekti sifatidagi tasnifiy asoslari. Ekonomika. ЭКОНОМИКА, 804-809.